

# Maktabda tarbiya jarayonining ahamiyati, maqsad va vazifalari

Shodiya Ozodovna Hamrayeva

Alisher Navoiy Nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti

**Annotatsiya:** Tarbiya jamiyat taraqqiyotida ijtimoiy xulqni boshqara olishi bilan dolzarb hisoblanadi. Mazkur maqola orqali tarbiyaning jamiyatdagi o'rnini, o'ziga xos xususiyatlari, tub mohiyati, tushunchalari batafsil tushuntirildi, misollar orqali dalillandi.

**Kalit so'zlar:** tarbiya, xulq-atvor, Abdulla Avloniy, at-Termiziy, hadis, metod, ijtimoiy tarbiya

## Importance, goals and tasks of educational process at school

Shodiya Ozodovna Hamrayeva

Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navoi

**Abstract:** Education is relevant in the development of society as it can control social behavior. Through this article, the role of education in society, its characteristics, essence, and concepts were explained in detail and proved by examples.

**Keywords:** education, behavior, Abdullah Awlani, al-Tirmizi, hadith, method, social education

Tarbiya muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy va tarixiy tajriba asosida shaxsni har tomonlama o'stirish, uning ongi, xulq-atvori, dunyoqarashini tarkib topdirish jarayoni bo'lib, har qanday tuzim va zamonda ijtimoiy munosabatlar mazmunini aniqlash, ularni tashkil etish asosi bo'lib kelgan. Yosh avlod tarbiyasi turli makon va zamonda muayyan maqsad asosida tashkil etiladi. Tarbiyaning maqsadi va vazifalari ijtimoiy tuzum mohiyati, taraqqiyot darajasi, ijtimoiy munosabatlar mazmuni, shuningdek, jamiyat fuqorolarining dunyoqarashi, intilishlari, orzu-niyatlari asosida belgilanadi. Tarbiya jarayonining xususiyatlarini chuqur anglash va ularni inobatga olgan holda tarbiyani tashkil etish, oldinga qo'yilgan maqsadga erishish, shuningdek, bu boradi vazifalarni ijobiy hal etish imkonini beradi. Tarbiya g'oyasi turlicha ifodalangan bo'lsada, ammo yo'naltiruvchanlik xususiyati hamda obyektiga ko'ra yakdillikni ifoda etadi. Tarbiya xususida taniqli o'zbek pedagogi Abdulla Avloniy shunday deydi: "Al-hosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot, yo mamot, yo najot-yo

halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir.” Ushbu fikrlardan anglaniladiki, shaxs tarbiyasi xususiy ish emas, balki ijtimoiy milliy ishdir.

Sharq xalqlari orasida qadimdan farzand tarbiyasiga alohida e'tibor qaratib kelingan. Farzand tarbiyasiga chaqaloqning tug'ilgan paytidan, balki undan ham oldinroq ahamiyat berish lozimligi haqida qator rivoyatlar va ibratli hikoyalar borki, ularning barchasida insonning kamoloti va kelajak poydevori, yoshlikda olingan ta'lim-tarbiyaga bog'liqligi haqida so'z yuritiladi. Xalqimizda “Bir bolaga yetti mahalla ota-ona“ degan hikmatning ma'nosi ham tarbiyaning ahamiyatlilik va ma'sulyatlilik darajasi nechog'lik yuqori ekanligini bildirib turadi. Sir emaski, milliy madaniyatimizning o'q ildizi islomiy odob axloq qoidalari bilan bog'liq bo'lib, unda Qur'on va hadis ta'limoti an'alaridan barakali foydalanilgandir. Payg'ambarimiz Muhammad sollolohu alayhi vassallamning “Ota-ona o'z bolasiga go'zal odobdan afzal narsa bera olmaydi.” (Ayyub ibn-Muso roziyallohu anhudan, u kishi otasidan, u kishi bobosidan at-Termiziy rivoyati) deganlarida farzandning kelajakda jamiyat oldidagi ma'sulyatini bildirsa, ikkinchi tomondan otaning farzand oldidagi majburiyatini ham bildirib turadi. Shuni aytishimiz joizki ota-onalar farzand tarbiyasi borasida fikr yuritar chog'larida, o'qituvchilarimiz dars o'tish jarayonlarida hadis namunalaridan foydalanib ish yuritsa foydaliroq bo'lar edi. Zero, har bir xalqning taraqqiy etishi, davlatning qudratli bo'lishi avlodlar tarbiyasiga ko'p jihatdan bog'liq.

Tarbiya jarayoni o'qituvchi va o'quvchi (tarbiyachi va tarbiyalanuvchi) lar o'rtasida tashkil etuvchi hamda aniq maqsadga yo'naltirilgan hamkorlik jarayonidir. Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchilarning ongi shakllana boradi, his-tuyg'ulari rivojlanadi, ijtimoiy hayot uchun zarur bo'lgan ijtimoiy aloqalarni tashkil etishga xizmat qiladigan xulqiy odatlar hosil bo'ladi. Har qanday ijtimoiy jamiyatda yosh avlod tarbiyasi muayyan maqsad asosida tashkil etiladi. Tarbiya maqsadi, ijtimoiy jamiyat taraqqiyoti, uning rivojlanish yo'nalishi, ijtimoiy munosabatlar mazmunidan kelib chiqib belgilanadi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida tashkil etilayotgan tarbiyaning asosiy maqsadi komil shaxsni tarbiyalab, voyaga yetkazishdan iborat. Tarbiyaning natijasi yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tarbiyalashdir. Bu jarayon ikki tamonlama bo'lib, uyushtirish va rahbarlik, shuningdek, o'quvchi shaxsining o'zi tomonidan faollik ko'rsatilishi taqazo etadi. Bu jarayonda pedagog yetakchi rol o'ynaydi. Chunki u ijtimoiy tarbiyaning umumiy maqsadlar mohiyatini tushunadi, maqsad yo'lida amalga oshiriladigan vazifalar tizimidan xabardor, tarbiya shakl, metod va vositalarni asosli, ilmiy tarzda tanlab oladi va tarbiya jarayoniga tadbiiq etadi. Har tamonlama yetuk shaxsni tarbiyalash unga izchil ravishda aqliy, g'oyaviy-siyosiy, axloqiy, mehnat, estetik, jismoniy, ekalogik, iqtisodiy hamda huquqiy tarbiya berish, o'quvchilarning ongi, xulq-atvoriga faoliyatining birligi, shuningdek, tarbiya jarayonini tashkil etishning yakka, guruhli va ommaviy shaklini qo'shib olib borilishini ta'minlaydigan

pedagogik tizimlarni vujudga keltirish va bu tizim g'oyalariga amal qilishni talab qiladi. Ijtimoiy tarbiyani tashkil etish jarayonida bir qator vazifalar hal etiladi. Ushbu vazifalar ijtimoiy tarbiya maqsadidan kelib chiqib belgilanadi. Mustaqil O'zbekiston Respublikasida ayni vaqtda yosh avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish jarayonida quyidagi vazifalarni hal etish muhim ahamiyat kasb etmoqda:

a) yoshlarni ijtimoiy hayotga tayyorlash, ularda keng dunyoarashni tarkib toptirish, o'z shaxsiy turmushiga maqsadli yondashuv, reja va amal birligi hissini uyg'otish;

b) o'quvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar mohiyatidan ogoh etish, chuqur bilim va tafakkurga ega yoshlarni tarbiyalash, ular ongini boyitish;

d) o'quvchilarda huquqiy va axloqiy me'yorlarga hurmat ruhida yondashish hissi va fuqorolik tuyg'usi, ijtimoiy burchga ma'sullikni qaror toptirish;

f) mustaqil davlat - O'zbekiston Respublikasining ichki va tashqi siyosatiga to'g'ri va xolisona baho berishga o'rganish;

e) insonni oliy qadriyat sifatida qadrlash, uning sha'ni, or-nomusi, qadr- qimmatini, huquq va burchini hurmat qilishga o'rgatish va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan ijtimoiy tarbiyaning umumiy vazifasi ana shulardan iboratdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. M.X. To'xtaxodjayeve Pedagogika. - O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2010.398 b.

2. Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat. - Toshkent, O'zbekiston, 1994.

3. Karimov I.A. Milliy istiqloq mafkurasi-xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. - Toshkent, O'zbekiston,2000.

4. Хайдаров, С. А. (2023). ТАРИХ ДАРСЛАРИДА САНЪАТ АСАРЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ УСУЛЛАРИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(1/2), 92-96.

5. Аслонов И. (2022) «Бобурнома» бадий – психологик тасвир муаммоси объекти сифатида. *O'zMU xabarлари. Toshkent – 2022. №1/5.*

6. Aslonov Ilhom Nizomovich. (2022) The Problem of Artistic - Psychological Image in Boburnoma. *Eurasian Scientific Herald. Volume 7| April, 2022. ISSN: 2795-7365.*

7. Aslonov Ilhom Nizomovich. (2022) Appearance of Zahiriddin Muhammad Bobur in "Boburnoma"*Central Asian journal of theoretical and applied sciences Volume: 03 Issue: 06 | Jun 2022 ISSN: 2660-5317.*

8. Sattorov V.N (2023). Umumiy pedagogika fani taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlari. *ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL, NATURAL AND SOCIAL SCIENCES*,3, 710-719. (2023)

9. Sattorov V.N (2023). Umumiy pedagogika fanini o'qitishda inovatsialar. **ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL, NATURAL AND SOCIAL SCIENCES**,3, 734-745 (2023).

10. Sattorov V.N (2022). Methods of shaping the culture of the teacher. *Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning*. vol 3 no.02. 36-41 (2022). ISSN (online): 2776-0995

11. Sattorov V.N (2023). Indicators of Pedagogical Competence and its Effectiveness. *International Journal of Inclusive and Sustainable Education*. vol 2 no.02. 86-88. (2023). ISSN(e): 2833-5414

12. Arapbaeva Damegul Kurbanovna, Amirova Bibisara Aubakirovna. Personal Psychological Adaptation and its Characteristics. **INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION**. VOL. 2. NO 2. 2023. -P. 68-70.